



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING SHAKLLANISHI (1991-2000 yillar)

Axmedov Og‘abek Baxtiyor o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi va rivojlanishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy himoya tushunchasi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat tomonidan aholini ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy ta’minot, sug‘urta va yordam tizimlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlik va mahalliy amaliyotlar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy sug‘urta, bozor iqtisodiyoti, manzilli yordam.

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В НЕЗАВИСИМОМ УЗБЕКИСТАНЕ (1991–2000 гг.)

Ахмедов Огабек Бахтиёр угли

Университет точных и социальных наук, магистрант 2 курса

Аннотация

В статье анализируется процесс формирования и развития системы социальной защиты населения в Узбекистане после обретения независимости. Рассматриваются сущность, цели и функции социальной защиты. Особое внимание уделяется государственным мерам по обеспечению социальной стабильности в условиях экономического кризиса. Исследуются взаимосвязи систем социального обеспечения, страхования и помощи. Также анализируется соответствие национальной практики международным стандартам.

Ключевые слова: социальная защита, социальная политика, социальное обеспечение, социальное страхование, рыночная экономика, адресная помощь.

FORMATION OF THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN INDEPENDENT UZBEKISTAN (1991–2000)

Akhmedov Og‘abek Bakhtiyor ugli

University of Exact and Social Sciences, 2nd-year Master’s Student

Abstract

This article examines the formation and development of Uzbekistan’s social protection system after independence. The study analyzes the essence, objectives, and functions of social protection. State measures to ensure social stability during the early economic crisis are explored. The interrelation between social security, insurance, and assistance systems is assessed. The analysis also considers the alignment of national practices with international standards and guidelines.

Keywords: social protection, social policy, social security, social insurance, market economy, targeted assistance.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi jamiyat barqarorligi va aholi farovonligini ta‘minlovchi muhim institut sifatida shakllandi. Ushbu tizimning mazmun-mohiyati, funksional yo‘nalishlari hamda davlat siyosatidagi o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish hozirgi globallashtirish sharoitida alohida dolzarflik kasb etmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar tufayli tirikchilik uchun mablag‘ yetishmagan taqdirda ta‘minlanish huquqiga egaligi belgilangan [1,25]. Mazkur huquqni amalga oshirish mexanizmi sifatida ijtimoiy himoya tizimi xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam shakllari orqali izohlanadi. Xususan, ijtimoiy ta‘minot fuqarolarning ayrim toifalarini davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar hisobidan moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lsa [2,246], ijtimoiy sug‘urta davlat tomonidan belgilangan va kafolatlangan mexanizmlar asosida keksa hamda mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta‘minlash tizimini anglatadi [3,249]. Ijtimoiy yordam esa aholining ehtiyojmand qatlamlariga manzilli va maqsadli tarzda ko‘rsatiladi.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi ilk bor 1935-yilda AQSHning “Ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunida qo‘llanilib, ishsizlik, daromadni yo‘qotish, kasallik va nogironlik kabi ijtimoiy xatarlar oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy yo‘qotishlardan aholini himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida talqin etilgan. Keyinchalik mazkur yondashuv 1938-yilda Yangi Zelandiya qonunchiligida ham mustahkamlangan.

Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro mehnat byurosi mutaxassisleri ijtimoiy himoyani keng va tor ma‘noda talqin qilib, uni bir tomondan inson hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi tizim, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam mexanizmlari majmui sifatida izohlaydilar [4,250]. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da ham ijtimoiy himoya aholini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui sifatida ta‘riflanadi [5,69].

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, aholining ijtimoiy himoyasi davlat tomonidan belgilangan standartlar asosida fuqarolarning munosib turmush sharoitlarini ta‘minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan kafolatli faoliyat sifatida baholanadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillik davrida shakllangan ijtimoiy himoya tizimining nazariy asoslari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda bir qator milliy tadqiqotchilar tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, F.J. Yormatovning [6] janubiy viloyatlar misolida amalga oshirgan tadqiqotlarida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholining bandligini ta‘minlash, mahalla institutining roli, yoshlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot mustaqillikning ilk yillaridagi ijtimoiy holatni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, hududiy jihatdan cheklangani sababli mamlakat miqyosidagi ijtimoiy jarayonlarni to‘liq qamrab olmaydi. T.D. Mamatqobilov [7] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston ijtimoiy himoya siyosatining genezisi, evolyutsiyasi va amaliy jihatlari tahlil qilinib, tizimda yuz bergan o‘zgarishlarning siyosiy-huquqiy asoslari ochib berilgan. Ushbu yondashuv ijtimoiy himoyani davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

Aholining alohida ijtimoiy guruhlarini himoyalash masalalari Sh.M. Sodiqova [8], X.X. Abdurahmonov [9], M.A. Usmonova [10], A.B. Irmatova [11], F.O. Kamilov [12], M.X. Shamsiyeva [13], T.K. Narbayeva [14] hamda Z.X. Zaitovlar [15] tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlarda keksalar, bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va xotin-qizlarni ijtimoiy

himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan bo‘lib, ular ijtimoiy himoyaning sektoral jihatlarini ochib beradi.

Ijtimoiy jarayonlarning iqtisodiy omillari va ularning bandlik hamda daromad siyosatiga ta’siri B.B. Baxtiyorov [16], D.B. Baxromova [17], M.K. Abdullayeva [18], L.N. Xaliqova [19] va S.Yu. Yo‘qubova [20] tadqiqotlarida tahlil etilgan. Mazkur ishlar ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy asoslarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. D.K. Ahmedov [21] hamda Sh.M. G‘oziyev [22] esa ijtimoiy himoyaning huquqiy mexanizmlarini tadqiq etib, ularni davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari bilan bog‘laydi.

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda R. Hasanov, Sh. O‘ljayev va O. Musayevlar [23] tomonidan yaratilgan “O‘zbekiston tarixi” o‘quv qo‘llanmasi hamda Q. Usmonovning [24] “O‘zbekiston tarixi” (milliy istiqlol davri) darsligida bayon etilgan materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimini isloh qilish, moslashuv mexanizmlari va mahalla institutining o‘rni yoritilgan.

Bundan tashqari, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, BMT, YUNISEF va Jahon banki tomonidan e‘lon qilingan hisobot va tahliliy materiallar O‘zbekiston tajribasini global ijtimoiy himoya standartlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Tahlil qilingan adabiyotlar ijtimoiy himoya tizimining alohida jihatlarini — huquqiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy guruhlar kesimida yoritilganini ko‘rsatadi. Biroq mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi va rivojlanishini yagona tarixiy-institutsional jarayon sifatida kompleks tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli emas. Aynan ushbu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolada tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylik usullari, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv hamda normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda statistik va institutsional tahlil usullaridan ham foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilinishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tub burilish yasadi. Biroq mustaqillik sobiq ittifoqdan meros bo‘lib qolgan markazlashgan boshqaruv tizimi, ishlab chiqarishning biryoqlama tuzilmasi, iqtisodiy aloqalarning uzilishi hamda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida amalga oshirildi. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, inflyatsiyaning yuqori darajasi, ishsizlikning ortishi va aholining turmush darajasining pasayishi kuzatildi.

Mazkur sharoitda ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish va aholining eng zaif qatlamlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. G‘arb olimi Paul Spiker ta’kidlaganidek, ijtimoiy siyosatning markazida ijtimoiy farovonlik va xizmatlar turadi hamda u sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik va ijtimoiy xavfsizlik kabi sohalarni qamrab oladi [25, 10–12]. O‘zbekistonda ham mustaqillikning ilk yillarida aynan ana shu yondashuv asosida ijtimoiy siyosat shakllantirildi. Davlat tomonidan ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni muntazam oshirib borish, kompensatsiyalar, imtiyozlar, dotatsiyalar va subsidiyalar joriy etish orqali aholining real daromadlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning bozor munosabatlariga o‘tishda ijtimoiy adolat va kuchli ijtimoiy himoya tamoyillariga sodiqlik haqidagi qarashlari ushbu siyosatning konseptual asosini tashkil etdi [26, 64]. Bu yondashuv bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ijtimoiy tengsizlikning keskinlashuviga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qildi.

F. Yormatov ta’kidlaganidek, mustaqillik arafasida aholining uy-joy, bandlik, tibbiy va madaniy xizmatlar bilan ta’minlanishi bilan bog‘liq muammolar keskinlashgan edi [27, 14]. Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [28] ijtimoiy huquqlarni davlat tomonidan kafolatlanadigan asosiy

huquqlar sifatida mustahkamlab, mamlakatni ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat sifatida e‘tirof etdi. Konstitutsiyaning 39-, 40-, 41- va 45-moddalarida ijtimoiy ta‘minot, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga oid normalarning belgilanishi ijtimoiy siyosatning institutsional asosini yaratdi.

Ijtimoiy himoyaning huquqiy mexanizmlari 1991–1993-yillarda qabul qilingan “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida” hamda “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” qonunlari orqali mustahkamlandi [29, 329]. Ushbu davrda ijtimoiy tadbirlarga katta miqdorda mablag‘ yo‘naltirilib, 1991-yilda ijtimoiy soha xarajatlari 2 mlrd so‘mdan oshdi [30, 12]. Bu choralar iqtisodiy inqiroz sharoitida aholining turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga xizmat qildi. 1991–1996-yillarda ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari bosqichma-bosqich oshirildi. Jumladan, ijtimoiy muhofaza xarajatlari davlat byudjetining 3,1 foizini tashkil etdi [31, 17]. Natijada sog‘liqni saqlash va demografik ko‘rsatkichlarda ijobiy siljishlar kuzatildi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta‘kidlaganidek, ijtimoiy-gumanitar sohadagi islohotlar natijasida onalar va bolalar o‘limi keskin kamayib, aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi oshdi [32, 17]. Bu ijtimoiy himoya siyosatining uzoq muddatli ijobiy samaralarini ko‘rsatadi.

1994-yildan boshlab ijtimoiy yordamning manzilli mexanizmlari shakllantirildi. “Kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmon [35] va unga muvofiq qabul qilingan qarorlar [36] asosida moddiy yordamni mahalla institutlari orqali taqsimlash tizimi joriy etildi. Bu ijtimoiy yordamning adolatli va ehtiyojga mos taqsimlanishini ta‘minladi. 1995–1997-yillarda bolali oilalarga davlat yordamini kuchaytirishga qaratilgan farmonlar [37] natijasida yuz minglab ehtiyojmand oilalarga moddiy yordam ko‘rsatildi [38, 272; 39, 272].

Shuningdek, nogironlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy integratsiyalashga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi [40]. Ijtimoiy siyosat doirasida oilani mustahkamlash, xotin-qizlar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan tashabbuslar izchil davom ettirildi. Muayyan yillarning ijtimoiy yo‘nalishlarga bag‘ishlab e‘lon qilinishi mazkur siyosatning tizimli va uzluksiz xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini umumlashtirish asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalar aniqlanadi:

- Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy himoya tizimi iqtisodiy inqiroz sharoitida ijtimoiy barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynadi.
- Ijtimoiy huquqlarning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ijtimoiy siyosatning institutsional barqarorligini ta‘minladi.
- 1994-yildan boshlab joriy etilgan manzilli yordam va mahalla mexanizmi ijtimoiy himoyaning samaradorligini oshirdi.
- Davlat tomonidan ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarishning qisqarishi va aholi turmush darajasining pasayishi sharoitida ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi.

Mustaqillikning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatning asosiy vazifasi aholining eng zaif qatlamlarini himoyalash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va keskin ijtimoiy tabaqalanishning oldini olishdan iborat bo‘ldi. Bu jarayonda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompensatsion choralar muhim rol o‘ynadi. Ijtimoiy huquqlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanishi esa ijtimoiy himoya tizimining institutsional va huquqiy asoslarini yaratdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, 1994-yildan boshlab ijtimoiy himoyada manzilli yondashuvning joriy etilishi, xususan, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga yordam ko'rsatishda mahalla institutining faol ishtiroki tizim samaradorligini oshirdi. Ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining bosqichma-bosqich ortib borishi demografik va ijtimoiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keldi. Bu holat ijtimoiy himoyaning faqat qisqa muddatli kompensatsion chora emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish omili ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy himoya siyosati iqtisodiy o'tish davrida jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash, aholining hayot darajasini barqarorlashtirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan kompleks va izchil tizim sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Ijtimoiy himoya tizimini tarixiy-institutsional yondashuv asosida o'rganishni davom ettirish, mustaqillikning keyingi bosqichlarida yuz bergan islohotlarni dastlabki davr tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish zarur.
- Mahalla institutining ijtimoiy himoyadagi rolini chuqurroq tadqiq etish, uning samaradorligini baholash va zamonaviy ijtimoiy siyosat sharoitida takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
- Ijtimoiy himoyaning manzilliligi va adolatliligini oshirish uchun tarixiy tajriba asosida ijtimoiy yordam ko'rsatish mezonlarini takomillashtirish, ularni ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtirish lozim.
- Ijtimoiy himoya va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq o'rganish, ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatning uzoq muddatli ta'sirini ilmiy asosda baholash zarur.
- Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda xalqaro tajribani O'zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlil qilish, ijtimoiy himoya sohasida global standartlar va milliy model o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B. 25.
2. Abduraxmanova G. Q., Abduramanov X. X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti / tahrirchi Q. X. Abduraxmanov. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – B. 246–250.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "I" harfi. – T., 2000. – B. 69.
4. Yormatov F. J. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991–2010 yy., janubiy viloyatlar misolida): tarix fanlari nomzodi dis. – T., 2010.
5. Mamatqobilov T. D. Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy himoya siyosati: genezisi, evolyutsiyasi va amaliyoti: siyosiy fanlar nomzodi dis. – T., 2006.
6. Sodiqova Sh. M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili: sotsiologiya fanlari doktori dis. – T., 2016.
7. Abduramanov X. X. O'zbekistonda qariyalarni ijtimoiy himoya qilishning demografik asoslari: iqtisod fanlari nomzodi dis. – T., 2007.
8. Usmonova M. A. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyani tashkil etishning fuqarolik-huquqiy muammolari: yuridik fanlar doktori dis. – T., 2006.
9. Irmatova A. B. Ihsiz ayollarni ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisod fanlari nomzodi dis. – T., 2010.
10. Komilov F. O. Nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni institutsional takomillashtirish: sotsiologiya bo'yicha PhD dis. – T., 2022.
11. Shamsiyeva M. X. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va NNTlarning o'rni: tarix bo'yicha PhD dis. – T., 2020.
12. Narbaeva T. K. Sotsiologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – T., 2020.

13. Zaitov E. X.Institutsional muassasa bitiruvchilarini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish: sotsiologiya bo'yicha PhD dis. – T., 2020.
14. Baxtiyorov B. B.Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisod bo'yicha PhD dis. – T., 2020.
15. Baxromova D. B.Aholini ijtimoiy himoyalash yo'nalishlarining iqtisodiy-statistik tahlili: iqtisod bo'yicha PhD dis. – T., 2018.
16. Abdullaeva M. K.Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo'llari: iqtisod fanlari nomzodi dis. – T., 2008.
17. Xalkova L. N.Ijtimoiy himoya sotsial-iqtisodiy munosabat sifatida: iqtisod fanlari nomzodi dis. – T., 2000.
18. Yokubova S. Yu.Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash: iqtisod fanlari nomzodi dis. – T., 1994.
19. Axmedov D. K.Davlat ijtimoiy himoyasi: huquqiy asoslari va muammolari: yuridik fanlar doktori dis. – T., 2007.
20. G'oziev Sh. M.O'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy himoya faoliyati: yuridik fanlar nomzodi dis. – T., 2009.
21. Hasanov R., O'ljayev Sh., Musayev O.O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma. – T., 2022.
22. Usmonov Q.O'zbekiston tarixi (milliy istiqlol davri): darslik. – T.: O'qituvchi, 2007.
23. Spicker P.Social policy: themes and approaches. – 1995. – P. 10–12.
- 24.Masaliyeva O.,Bekmurodov M.O'zbekistonda ijtimoiy ish tarixi: o'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 64 b.
25. Jo'rayev N.O'zbekiston tarixi (milliy istiqlol davri). 3-kitob. – T.: Sharq, 2011. – B. 272.
- 26.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 1992-yil 8-dekabr.
- 27.“Saxovat” jurnali. – 1992. – № 1. – B. 12.
- 28.Saxovat jurnali. – 1994. – № 1. – B. 17.
- 29.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari. – 1992. – № 1–42. – B. 23–26.
30. Karimov I. A.O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 284–285.
- 31.O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi axborotnomasi. – T., 1994. – № 8–9. – B. 10–12.
- 32.Prezident devoni xabarnomasi. – 1994. – № 15.
- 33.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. – 1995-yil 20-noyabr. – PF-1288.
- 34.“Mahalla” gazetasi. – 2007-yil 21-fevral. – № 8 (558). – B. 2.
- 35.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. – 1999-yil 7-dekabr. – № 520.